

# XALQ TA'LIMI

---

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

---

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligi

## PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL  
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION  
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

# 2023

**3-son**  
(May-Iyun)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqqa boshlagan  
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

X <sub>T</sub>	TAHRIRIYAT
	TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI
F. Kuchkarova	Talabalarni sanogen tafakkurini rivojlantirish omillari
M. Xasanova	Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kompozitsiyaga oid kompetensiyalarni rivojlantirish
N. Turdiyev	Bo'lajak o'qituvchilarda daxldorlik hissini shakllantirish
J. Xamidov	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida innovatsion klaster yondashuvi asosida ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish
N. Valiyeva	Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy rivojlantirishning ilmiy-pedagogik jihatlari
	TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI
X. Orzikulov	Talabalarda ijtimoiy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (Pedagogika fanini o'qitish misolida)
A. Qosimov	Pedagogik texnologiyaning metodologik asoslari va uning xususiy metodikadan farqi
M. Boratova, O. Ishboeva	Biologiyani o'qitishda modulli ta'lif texnologiyalari va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning uzvilyigi va uyg'unligi
	TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT
N. Temirov	Oliy ta'lif sifatini baholashning xorijiy modellari va o'zbekistonda oliy ta'lif tizimidagi islohotlar tahlili
	ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI
N. Abdunazarova	Maktabgacha ta'lifda zamonaviy yondashuv va ta'lif va tarbiyaning asosiy prinsiplari
D. Pulatova	Oliy ta'lifda aralash ta'lifni tashkil etish tendensiyalari
D. Farsaxonova	Oliy ta'lifda interfaol ta'lif texnologiyalaridan foydalanish
	MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI
B. Narzullaeva	Mahallalarda millatlararo do'stlik aloqalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish
S. S. Meliboyeva	Milliy hunarmandchilik – voyaga yetayotgan qizlarni ijtimoiylashtirish omili sifatida
B. Xusanov	Oilalarda o'smir yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlash metodikasi
	TA'LIMDA MENEJMENT
N. Abdullaeva	Maktabgacha ta'lifda menejment, zamonaviy yondashuv va samarali shakllar
Z. Mahmudova	Maktabgacha ta'lif tashkilotida pedagogik jarayonlarni maqsadli boshqarishning dolzarb vazifalari
	TA'LIMDA MARKETING
Sh.Y. Yusupova	Moliyaviy savodxonlikni shakllantirish pedagogik muammo sifatida: pisa tadqiqoti tahlillari

---

**Jamshid XAMIDOV,**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Texnologik ta’lim”  
kafedrasi katta o’qituvchisi

## **BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARIDA INNOVATSION KLASTER YONDASHUVI ASOSIDA IJODKORLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH**

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolala bugungi kun ta’lim tizimida 1- 4-sinf o’quvchilarini innovatsion klaster yondashuvi asosida ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish, shuningdek, texnologiya darslarida klaster yondashuvi, ya’ni boshlang’ich sinf o’quvchilarini applikasiya ishlari orqali ijodkorligini oshirishga oid muammolarni o’rganish, maqsad va vazifalarni belgilab olish kabi masalalar yoritib berilgan.

**Kalit so’zlar.** Klaster, klasterli yondashuv, aksiologik, psixologik, metodlar, maqsad, jamiyat, tashabbuskor, ijodkor, dolzarb.

В данной статье освещается вопрос развития творческих способностей учащихся 1-4 классов на основе инновационного кластерного подхода в современной образовательной системе.

**Ключевые слова.** Кластер, кластерный подход, аксиологический, психологический, методы, цель, общество, инициатор, творец, актуальный.

This article sheds light on the issue of developing the creativity of 1-4 graders based on the innovative cluster approach in today’s educational system.

**Key words.** Cluster, cluster approach, axiological, psychological, methods, goal, society, initiator, creator, actual.

**R**еспубликада har bir soxada tashabbuskor, ijodkor, dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy muammolarni hal qilishda yangi yondashuvlarni topishga tayyor, yangi demokratik jamiyatda yashashi va shu jamiyat uchun foydalib bo’lishi mumkin bo’lgan odamlarga, ayniqsa, talab katta. Chunki, har qaysi davlat avvalo o’z farzandlari qiyofasida, unib-o’sib kelayotgan yosh avlod timsolida shu xalqqa xos xususiyat va fazilatlarni namoyon etadigan, uning azaliv orzularini amalga oshiradigan buyuk kuchni ko’radi. Ma’naviy va jismoniy barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasi biz uchun umummilliyl, umum davlat miqiyosidagi vazifa bo’lib, bu ezgu maqsad yo’lida amalga oshirilayotgan ishlarmizni izchil va qat’iyatlik bilan davom ettirish bugungi siyosatimizning diqqat markazida turibdi. Shu munosabat bilan, shaxsning ijodiy faoliyatini rivojlantirish muammosi bugungi kunda alohida dolzarblikka ega. Ijodkor shaxslar har doim sivilizasiya taraqqiyotini belgilab, yangilik, g’ayritabiylilik bilan ajralib turadigan moddiy va ma’naviy qadriyatlarni yaratib, odamlarga oddiy ko’rinadigan holdisalarda g’ayrioddiy narsalarni ko’rishga yordam beradi.

Psiyologik va pedagogik tadqiqotlarda ijodning 4 turi ajratib ko’rsatiladi:

– sodda (maktabgacha va boshlang’ich maktab yoshida namoyon bo’ladi). Ushbu yoshda maktab o’quvchilarida yengish kerak bo’lgan stereotiplar;

- rag’batlantiruvchi – samarali (faoliyat tashqi stimul ta’sirida aniqlanadi);
- evristik (faoliyat ijodiy xarakterga ega, muammolarni hal qilishning yangi original yoki yanada oqilona usullarini izlash amalga oshiriladi);
- haqiqiy (mustaqil ravishda topilgan muntazamlik yangi muammo vazifasini ba-

jaradi).

Maktab o'quvchilarining ijodiy faoliyatini o'qitishning natijasi bo'lgan rivojlanish omillari sifatida ijodiy qobiliyatlarni mustaqil omil sifatida belgilaydigan olimlarning pozisiyasiga rioya qilgan holda, biz yosh o'quvchilarning ijodiy qibiliyatlarining tarkibiy qismalarini ajratib ko'rsatamiz:

- ijodiy fikrlash;
- ijodiy tasavvur;
- ijodiy faoliyatni tashkil etish usullarini qo'llash.

Talabalarning ijodiy tafakkuri va tasavvurini rivojlantirish uchun quyidagi ko'nikmalarни rivojlantirish zarur:

- obyektlarni, vaziyatlarni, hodisalarni turli asoslarda tasniflash;
- sababiy munosabatlarni o'matish;
- tizimlar o'rtasidagi munosabatlarni ko'rish va yangi aloqalarni aniqlash;
- tizimni ishlab chiqishda ko'rib chiqish;
- kelajakka oid taxminlar qilish;
- obyektning qarama-qarshi belgilarini ajratib ko'rsatish;
- qarama-qarshiliklarni aniqlash va shakllantirish;
- bozmlarning makon va vaqtagi ziddiyatli xususiyatlarini ajratish;
- fazoviy obyektlarni aks ettirish;
- xayoliy makonda turli yo'naltirish tizimlaridan foydalanish;
- tanlangan xususiyatlarga asoslangan obyektni ifodalash.

Yuqoridaagi masalalarni yechishda innovasion klaster yondashuvidan foydalanshni maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz. Shu o'rinda klaster tushunchasi va uning mohiyatini yoritib o'taylik. Klaster deb ma'lum tizim tushuniladi, ammo bu tizim o'ziga xos bo'lib, bunda unga qo'shilgan elementlar ushbu tizimning ishini yaxshilaydi, biroq undan biron elementning chiqib ketishi, bu tizimning buzulishiga olib kelmaydi. Klaster tizimlariga unumdonorlik, barqarorlik xos hamda u oson zamona viylashtirilishi, yangilanishi va turli vositalarda kuchaytirilishi mumkin. Klasterning afzalligi uning global mas-shtabga egaligi, ochiqligi, egiluvchanligi va boshqaruvining soddaligidadir.

Klaster yondashuvga murojaat qilishga zaruriyat – klasterning texnologik ta'lif tizimining samaradorligini oshirish, manfaatdor tomonlar harakatini birlashtirish xususiyatiga ega tashkillashtirish shakli sifatida ustuvorlikka egaligidadir. Klasterlarning asosiy shartlaridan biri ularning xududiy strategiyasidir, zero ta'lif klasterlari o'z xududidan ajralmagan holda rivojlanadi.

Umumiy o'rta ta'lif maktabini 4-sinf o'quvchilarining ijodkorligini oshirishda "Tabiiy va turli materiallardan applikasiya ishlariда foydalanish usullari" mavzusi shu ma'noda dolzarbki, texnologiya fanini o'qitilishini to'g'ri yo'lga qo'yish, o'quvchini mehnat faoliyatiga jalb qilish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan birdir.

Boshlang'ich sinf Texnologiya darslarining tarbiyaviy ahamiyati, o'quvchilarni qo'l mehnatiga o'rgatish, ularni ijodkor, yetuk inson qilib tarbiyalash, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish, mehnat malakalarini oshirirish, amaliy mashg'ulotlar jarayonida ko'nikma va malakalarni shakllantirish, kasbga yo'naltirish, aplikasiya ishlari orqali o'quvchilarni estetik jijatdan tarbiyalash, o'quvchilarni kasb-hunarli bo'lib yetishishlariga zamin yaratishdan iborat. Shuningdek, 4-sinf o'quvchilari qog'oz turlaridan, tabiiy va turli materiallardan applikasiya yo'nalishida har xil kompozisiyalar yaratish jarayonida ularning ijodkorlik qibiliyarları yanada rivojlanib boradi.

Texnologiya darslarida Klaster yondashuv orqali avvalombor muommolar o'r-

---

ganilib chiqiladi. 4-sinf Texnologiya darslarida o'quvchilarini applikasiya ishlari orqali ijodkorligini oshirishda turli metodlardan foydalanish, maqsadi va vazifalarini belgilab olishda muammolarining holatini o'rganish hamda quyidagi tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat:

- boshlang'ich sind o'quvchilarini applikasiya ishlari orqali ijodkorligini oshirishga oid muammolarni o'rganish hamda maqsad va vazifalarini belgilab olish;
- boshlang'ich sind o'quvchilarini applikasiya ishlari orqali ijodkorligini oshirishda mavzuga doir ma'lumotlarni tahlil qilish;
- boshlang'ich o'quvchilarini applikasiya ishlari orqali ijodkorligini oshirishda muvaffaqiyatli ish uslublarini o'rganish;
- boshlang'ich sind o'quvchilarini ijodkor qilib tarbiyalashning samaradorligini os-hirish;
- boshlang'ich sind o'quvchilarini applikasiya ishlari orqali ijodkorligini oshirishda turli metodlardan foydalanishda doimiy izlanishlar olib borish;
- boshlang'ich sind o'quvchilarini applikasiya ishlari orqali ijodkorligini oshirishda o'qituvchini individual yondoshuvini ta'minlash shart-sharoitlarini ishlab chiqish.

1-4 sind o'quvchilarini ijodkorlik qobiliyatini oshirishda Texnologiya darslarida mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish, applikasiya ishlari orqali tarbiyalashga doir bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlarini ta'minlashlari uchun qo'shimcha amaliy mashg'ulotlar va to'garaklar faoliyatini to'g'ri yo'nga qo'yish ishlarida samarali natijalar ni qo'lga kiritish mumkin.

1-4 sind o'quvchilarining ijodkorlik qobiliyatini oshirishda applikasiya ishlaridan foydalanish yo'llari o'quvchilarda turli texnologik ta'limgarayonida o'quvchilarini aqliy va axloqiy, estetik jihatdan rivojlantirib borishda ularning yosh hususiyatlarini, shaxsiy, psixologik va fiziologik sifatlarini hisobga olindi. O'quvchilarini bilim, o'quv ko'nikmalarni turli usullar bilan davlat ta'limgarayonida standartlariga binoan nazorat qilib borildi hamda 4-sind o'quvchilarining ijodkorlik qobiliyatini oshirishda applikasiya ishlaridan foydalanish yuzasidan tashkil etilgan amaliy mashg'ulot davomida ko'zlangan maqsadga va natijaga erishildi.

Xulosa qilib aytganda, ta'limgarayonida klasterlashtirish ta'limgarayonida zamonaviylashtirish va ta'limgarayonida kompleks model asosida qurishga imkon yaratadi. U o'z ichiga maqsadlar, metodlar, shakllar, vositalar, o'quvchilarining qadriyatlarni o'zlashtirish mexanizmlari, tarbiya tizimida boshqaruv elementlari kabi komponentlarini joylab ol-gan bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Muxamedov G.I., Mardonov Sh.Q. "Kasbiy ta'limgarayonida klaster yondashuvni qo'l-lash mohiyati".// ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, SCIENTIFIC JOURNAL, VOLUME 2, 2021.
2. Каменский А.М. «Внутришкольный образовательный кластер»// Режим доступа: <http://www.likt590.ru/about/director/cluster.pdf>
3. Барканова О.В. "Методики диагностики одаренности и креативности: психологический практикум". – Вип. 3. – Краснояр. гос. пед. ун-т им. В.П.Астафера. – Красноярск, 2011.
4. Хамидов Ж.А. "О некоторых формах, методах трудового воспитания младших школьников".// Academic research in educational sciences scientific journal. Volume 1, Issue 3, 2020

**Bosh muharrir:**

Mahmudov Sarvar Yuldashevich

**Mas’ul kotib:**

Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

**Bosh dizayner – badiiy muharrir:**

Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

**TAHRIR HAY'ATI:**

Xilola UMAROVA, Risboy JO'RAYEV, Komiljon MUQIMOV, Ulug'bek INOYATOV,  
G'ayrat SHOUMAROV, Maqsudjon YULDASHEV, Oynisa MUSURMONOVA, Lola MO'MINOVA,  
Dilyara SHARIPOVA, Barno ABDULLAYEVA, Rohatoy SAFAROVA, Xolboy IBRAGIMOV,  
Ravil IS'YANOV, Mirodiljon BARATOV, Shaxnoza XALILOVA, Sharibboy ERGASHEV,  
Yashin ISMANDIYAROV, Alisher UMAROV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA'MUROV,  
Shukurullo MARDONOV, Ulfat MAHKAMOV, Muhayyo UMARALIYEVA.

**JAMOATCHILIK KENGASHI:**

Dilshod KENJAYEV, Sobitxon TURG'UNOV, Nargiza RAXMANKULOVA, Abduhalim MAHMUDOV,  
Kamola RISKULOVA, Feruza QODIROVA, Islom ZOKIROV, Ravshan ABDUXAIROV.

**Tahririyat manzili:**

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
E-mail: [xalq\\_talimi@xtv.uz](mailto:xalq_talimi@xtv.uz) Tel: (0 371) 231-16-51, Faks: 231-16-52  
[t.me/xalq\\_talimi\\_jurnali](https://t.me/xalq_talimi_jurnali). [http://t.me/xalq\\_talimi\\_jurnali](http://t.me/xalq_talimi_jurnali).

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e'lon qilingan maqolalardan olingen matnlar “Xalq ta'limi” ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko'rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagи 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro'yxatiga kiritilgan.

“TAFAKKUR NASHRIYOTI” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko'chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: \_\_\_\_-\_\_\_\_-\_\_\_\_-y. Qog'oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.  
Shartli b.t. 12,0. Adadi \_\_\_\_ nusxa. – buyurtma.  
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas’ul – Abduqodirova Shohida Akmalxo'ja qizi

Jurnalga taqdim etilgan barcha materiallar <https://rustxt.ru/antiplagiat> sayti hamda [https://t.me/check\\_antiplagiat\\_bot](https://t.me/check_antiplagiat_bot) da monitoring qilinadi.

© “Xalq ta'limi” jurnalı, 2023.